

«TASDIQLANDI»

**“Kapitalbank” ATB
Aksiyadorlari
umumiy yig‘ilishining
2019-yil 30-dekabrdagi
4/2019-sonli bayonnomasi bilan**

Yig‘ilish raisi

_____ M.A. Abdusamadov

**“Kapitalbank” ATB
Ichki nazorat to‘g‘risidagi**

NIZOMI

Toshkent – 2020

I. UMUMIY QOIDALAR VA ATAMALAR

1. Ushbu “Kapitalbank” ATB Ichki nazorat to‘g‘risidagi nizomi (bundan buyon – Nizom) O‘zbekiston Respublikasining “Banklar va banklar faoliyati to‘g‘risida”gi (yangi tahriri), “Aksiyadorlik jamiyatlari va aksiyadorlar huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi (yangi tahriri) Qonunlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 24-apreldagi № PF-4720-sonli “Aksiyadorlik jamiyatlarida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy qilish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni, O‘zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida 2000-yil 5-iyulda 943-raqami bilan ro‘yxatga olingan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan 2000-yil 24-iyundagi 472-sonli “Tijorat banklarida korporativ boshqaruv to‘g‘risidagi nizom”, Aksiyadorlik jamiyatlari faoliyatining samaradorligini oshirish va korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish komissiyasining 2015-yil 31-dekabrda 9-sonli bayonnomasi bilan tasdiqlangan “Korporativ boshqaruv kodeksi”ga, shuningdek “Kapitalbank” ATB Ustaviga binoan ishlab chiqildi.

2. Nizom bankda ichki nazorat tizimining maqsadlari va vazifalarini, uning ishlash tamoyillarini, shuningdek ichki nazorat uchun javobgar bo‘lgan organ va shaxslarni belgilab beradi.

3. Mazkur Nizomda foydalaniladigan tushunchalar:

ichki nazorat – bu bank (uning boshqaruv organlari, tarkibiy bo‘linmalari va xodimlari) tomonidan amalga oshiriladigan, hamda xatarlarni boshqarish, nazorat va korporativ boshqaruv jarayonlarining samaradorligini oshirishga yo‘naltirilgan, quyidagi maqsadlarga erishish maqsadlariga xizmat qiladigan uzluksiz amalda bo‘lgan jarayon:

bank operatsiyalari va boshqa bitimlari amalga oshirilganda moliyaviy-xo‘jalik faoliyatining samaradorligi va natijadorligi, aktivlarning saqlanishini, bank xatarlarini boshqarishni o‘z ichiga olgan aktivlar va passivlarni boshqarish samaradorligi;

moliyaviy, buxgalterlik, statistik va boshqa hisobotlar (ichki va tashqi foydalanuvchilar uchun), shuningdek axborot xavfsizligining haqqoniyligi, to‘liqligi, obyektivligi, o‘z vaqtida tuzilishi va taqdim qilinishi;

bankning normativ-huquqiy hujjatlari, ta‘sis va mahalliy hujjatlariga rioya qilish;

noqonuniy faoliyatni amalga oshirishda, shu jumladan jinoiy faoliyatdan, terrorizmni moliyalashtirishdan olingan daromadlarni legallashtirishda bankning jalb qilinishini va uning xodimlarining ishtirokini chiqarib tashlash, hamda qonunchilikka binoan O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki va davlat boshqaruv organlariga ma‘lumotlarni o‘z vaqtida taqdim qilish;

Ichki nazorat tizimi – O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi, Bankning Ustavi va mahalliy hujjatlari bilan belgilangan maqsadlarni amalga oshirilishi va ularga erishish tartibiga rioya qilishni ta‘minlovchi, ichki nazorat nazorat choralari, protseduralari va uslublarini nazorat qiluvchi tashkiliy tuzilma;

Ichki nazorat organlari tizimi – bankning mahalliy hujjatlari bilan belgilangan, ichki nazorat tizimi doirasida funksiyalar bajaruvchi boshqaruv organlari, shuningdek tarkibiy bo‘linmalar va xodimlar (javobgar xodimlar) majmui;

Ichki audit departamenti – bankning bank faoliyati va natijalari bo‘yicha obyektiv tahlil, baholash, tavsiyalar va ma‘lumotlar bo‘yicha o‘z faoliyatini amalga oshiruvchi tarkibiy bo‘linmasi;

Bankning Taftish komissiyasi – bank, uning tarkibiy bo‘linmalari va xizmatlari, shuningdek uning filiallarining moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan ichki nazorat funksiyasini amalga oshiruvchi bank organi.

Filial – bankning OPERB, MOB, BXM va barcha filiallari.

Nizomning talablari, tegishli xodimga ichki nazorat sohasida yuklatilgan funksiyalarni e‘tiborga olgan holda bankning har bir xodimi tomonidan ko‘llanilishi shart bo‘lgan qo‘llanma hisoblanadi.

II. ICHKI NAZORATNING MAQSAD VA TIZIMLARI. UNING ISHLASH TAMOYILLARI.

5. Bankning ichki nazorat tizimini tashkil qilishdan asosiy maqsad - bank aksiyadorlari, shu jumladan minoritar aksiyadorlarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilishni ta'minlashdan iborat.

6. Ichki nazorat tezkorlik rejimida quyidagilarni ta'minlashga qaratilgan:

aktivlarning saqlanishi, bank resurslaridan tejamkorlik bilan va samarali foydalash;
amaldagi qonunchilik va bankning mahalliy hujjatlarining talablariga rioya qilish;

bankni o'rtacha muddatli va uzoq muddatli davrlarda rivojlantirish strategiyasini, bankning biznes-rejalarining bajarish;

bankning buxgalteriya hujjatlari, moliyaviy hisoboti va boshqaruv ma'lumotlarining to'liqligi va haqqoniyligi;

bank faoliyatida xatarlar yuzaga kelgan vaqtda ularni aniqlash, identifikatsiyalash va tahlil qilish;

bank faoliyatidagi xatarlarni rejalashtirish va boshqarish,

xatarlarni boshqarish bo'yicha o'z vaqtida va mos qarorlar qabul qilishni ham ichiga olgan holda;

ishbilarmonlik doiralarida va mijozlarda bankning ijobiy obro'sini o'rnatish va saqlash;

Bankning Taftish komissiyasiga, Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi a'zolariga mukofotlar va kompensatsiyalar to'lovlarining, shu jumladan ular miqdorlarining mosligi, shaffofligi va obyektivligi.

7. Bankdagi ichki nazorat tizimi quyidagi tamoyillarga asoslanib tuziladi:

uzluksiz ishlash — ichki nazorat tizimining doimiy va tegishli darajada ishlashi bankka o'zining normalardan har qanday og'ishlarini o'z vaqtida to'g'irlash va kelajakda ularning oldini olish imkonini beradi;

ichki nazorat tizimi barcha ishtirokchilarining hisobotdorligi – ahar bir shaxs tomonidan nazorat funksiyalarini bajarish sifati ichki nazorat tizimining boshqa ishtirokchilari tomonidan nazorat qilinadi;

majburiyatlarni taqsimlash - bank nazorat funksiyalarini takrorlashga yo'l qo'yilmaslikka intiladi, va ushbu funksiyalar xodimlar o'rtasida shunday taqsimlanishi kerak-ki, bunda aynan bir shaxs, operatsiyalarni hisobga olib, aktivlarning saqlanishini ta'minlagan va ularni sanoqdan o'tkazgan holda, ma'lum aktivlar bilan operatsiyalarning tasdiqlanishi bilan bog'liq bo'lgan funksiyalarni birlashtirib turmasligi kerak;

operatsiyalarni tegishli tarzda ma'qullash va tasdiqlash – bana barcha moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarini vakolatli shaxslar tomonidan ularning tegishli vakolatlari doirasida tasdiqlash tartibini belgilashga intiladi;

har kungi ichki nazoratni amalga oshiruvchi *Ichki audit departamentining tashkiliy tabaqalanishini*, va uning Bankning Kuzatuv kengashi qoshidagi Auditorlik qo'mitasi orqali bevosita Bank Kengashi funksional hisobotdorligini ta'minlash;

Bankda ishlaydiganlarning nazorat funksiyalarini tegishli tarzda bajarilishi uchun *barcha ichki nazorat subyektlarining javobgarligi*;

bankning barcha tarkibiy bo'linmalarining aniq o'zaro munosabatlari asosida *ichki nazoratni amalga oshirish*;

doimiy rivojlanish va takomillashish - bank ichki nazorat tizimi yangi vazifalarni hal qilish, tizimning o'zini kengaytirish va takomillashtirish zaruratini hisobga olgan holda o'rganishi tizimni moslashuvchanlik bilan sozlash uchun sharoitlarni ta'minlashga intiladi;

og'ishlar haqidagi xabarlarni o'z vaqtida uzatilishi – og'ishlar haqidagi ma'lumotlar tegishli og'ishlar bo'yicha qaror qabul qilish vakolatiga ega bo'lgan shaxslarga, maksimal qisqa muddatlarda taqdim qilinishi kerak;

javobgarlik tamoyili – samarali ichki nazoratni tuzish maqsadlarida, har bir alohida nazorat funksiyasi bir nazorat subyektiga birlashtirilgan bo‘lishi kerak (bunda bittaa nazorat subyektiga bir necha nazorat funksiyalari birlashtirilgan bo‘lishi mumkin). Bankning har bir xodimi o‘z vazifalarini tegishli darajada bajarmaganligi uchun iqtisodiy, ma‘muriy va intizomiy javobgarlikka ega bo‘lishi kerak. Bunda javobgarlik har bir ma‘lum vazifaning bajarilganligi uchun belgilangan va bankning ma‘lum xodimiga birlashtirilgan bo‘lishi kerak. Nazorat funksiyalarining bajarilish sifati ichki nazorat tizimining yuqori turuvchi ishtirokchisi tomonidan nazorat qilinadi.

III. BANK ICHKI NAZORAT ORGANLARI TIZIMINING AMAL QILISH TARTIBI

8. Bankning Ustavi va mahalliy hujjatlari bilan belgilanadagin vakolatlarga muvofiq, Ichki nazoratni quyidagilar amalga oshiradilar:

a) Bankning boshqaruv organlari:

aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi;

bank Kuzatuv kengashi;

bank Boshqaruvi;

b) bankning bosh buxgalteri;

v) bank departamentlarining direktorlari va ularning o‘rinbosarlari;

g) bank filiallari boshqaruvchilari va bosh buxgalterlari (ularning o‘rinbosarlari);

d) bankning mahalliy hujjatlari bilan belgilangan vakolatlarga muvofiq ichki nazoratni amalga oshiruvchi bank bo‘linmalari va xodimlari.

9. Bank aksiyadorlari Umumiy yig‘ilishining ichki nazoratni amalga oshirish qismidagi vakolatlariga quyidagi masalalar kiradi:

Kuzatuv kengashining miqdoriy tarkibini belgilash, uning a‘zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan avval bekor qilish;

minoritar aksiyadorlari qo‘mitasining miqdoriy tarkibini belgilash, uning a‘zolarini saylash va ularning vakolatlarini muddatidan avval bekor qilish;

Bank Boshqaruvi raisini lavozimiga tayinlashi va uning vakolatlari uzaytirilishining tasdiqlanishi;

Bankning tashkiliy tuzilmasini tasdiqlash;

Majburiy auditorlik tekshiruvini o‘tkazish to‘g‘risida, uning xizmatlari uchun to‘lovning belgilangan miqdori va u bilan shartnoma tezish (bekor qilish) to‘g‘risida qaror qabul qilish;

Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvining bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish uchun qo‘llaniladigan chora-tabirlari to‘g‘risidagi hisobotlarini ko‘rib chiqish;

qonunchilik, bank aksiyadorlari umumiy yig‘ilishi to‘g‘risidagi nizomi va boshqa mahalliy hujjatlari bilan Aksiyadorlar Umumiy yig‘ilishi vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni hal qilish.

10. Bank Kuzatuv kengashining Ichki nazoratni amalga oshirish qismidagi vakolatlariga quyidagi masalalar kiradi:

bankni rivojlantirish strategiyasiga erishish, xalqaro tajribani tahlil qilish asosida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etish, hamda investitsion, moddiy-texnik, moliyaviy va mehnat resurslari, shuningdek Bank Boshqaruvining vakolatlariga kiradigan boshqa masalalar bo‘yicha Bank Boshqaruvining hisobotlarini tinglash;

Bank boshqaruvi a‘zolarini tayinlash, uzaytirish va ularning vakolatlarini muddatidan avval bekor qilish;

Bankning Ichki audit departamenti, Bank xatarlarini boshqarish departamentini tashkil qilish, shuningdek ularning xodimlarini lavozimlarga tayinlash va lavozimlardan ozod qilish, korporativ konsultantni tayinlash, uni lavozimidan ozod qilish, ularning faoliyatini belshilaydigan qoidalarni tasdiqlash, shuningdek ularning hisobotlarini tinglash;

Bankning mahalliy hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlash tartibini belgilash, bankning mahalliy hujjatlarini tasdiqlash, qonunchilik va ushbu Nizomga binoan aksiyadorlar umumiy yig'ilishining vakolatlariga kiradigan bankning mahalliy hujjatlari – bundan mustasno;

Bank Boshqaruvi faoliyati bilan bog'liq bo'lgan har qanday hujjatlardan foydalanishga ruxsat olish, va ularni Boshqaruvdan yoki uning topshirig'iga ko'ra Kuzatuv kengashiga yuklatilgan majburiyatlarni bajarish uchun mas'ul bo'lgan xodimlardan olish. olingan hujjatlardan faqatgina bank Kuzatuv kengashi xizmat maqsadlarida foydalanishi mumkin;

Bankning Bosh ofisi, filiallari va boshqa alohida bo'linmalarining tashkiliy tuzilmasini ishlab chiqish va tasdiqlash;

bank va (yoki) uning mijozlari uchun nohush oqibatlariga olib kelishi mumkin bo'lgan, Bank va (yoki) uning tarkibiy bo'linmalari, va (yoki) xodimlari, bank mijozlarining mulkiy va boshqa manfaatlari o'rtasida yuzaga keladigan manfaatlar borasidagi nizolarni Bankning mahalliy hujjatlari bilan belgilangan tartibda bartaraf etish;

amaldagi qonunchilik, Bankning Kuzatuv kengashi to'g'risidagi nizom va boshqa mahalliy hujjatlari bilan Bankning Kuzatuv kengashi vakolatlarigi kiritilgan boshqa masalalarni hal qilish.

11. Bank Boshqaruvining ichki nazoratni amalga oshirish qismidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Bank aksiyadorlari Umumiy yig'ilishi va Kuzatuv kengashi qarorlarining ijrosini tashkil qiladi;

Bank tarkibiy bo'linmalarining ishini muvofiqlashtiradi, xalqaro tajribani tahlil qilish asosida zamonaviy korporativ boshqaruv uslublarini joriy etadi, hamda investitsion, moddiy-texnik, moliyaviy va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligini oshiradi, bankka xorijiy investitsiyalarni keng jalb qilish uchun qulay sharoitlar yaratadi, yetakchi xorijiy ta'lim muassasalari bilan hamkorlik asosida boshqaruv xodimlarini tayyorlaydi va ularning kasb darajasini oshiradi;

Bankning mahalliy hujjatlarini ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, faqatgina tasdiqlanishi aksiyadorlar umumiy yig'ilishi, Bank Kuzatuv kengashi va Bank Boshqaruvi raisining vakolatlariga kiradigan bankning mahalliy hujjatlari – bundan mustasno;

bankning mahalliy hujjatlarini tasdiqlash, qonunchilik va ushbu Nizomga binoan bankning strategik maqsadlarini, korporativ boshqaruv siyosatini, shu jumladan xatarlarni aniqlash, boshqarish, monitoring qilish va ular to'g'risida xabardor qilish, kapitalning kerakli darajada yetarliligini qo'llab-quvvatlash bo'yicha boshqa ichki mahalliy hujjatlari va siyosatini amalga oshiradi;

bankning boshqarish bo'yicha tegishli va shaffof tashkiliy tuzilmasini, shu jumladan o'z vakolatlari doirasida bank xodimlari o'rtasida vakolatlar va mas'uliyatning taqsimlanishini ta'minlaydi;

bank xodimlari faoliyati ustidan nazoratni amalga oshiradi;

qonunchilik, bank Boshqaruv to'g'risidagi nizomi va boshqa mahalliy hujjatlari bilan bank Boshqaruv vakolatlariga kiritilgan boshqa masalalarni hal qiladi.

12. Bank Bosh buxgalterining ichki nazoratni amalga oshirish qismidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Bankning hisob siyosatini shakllantirish va amalga oshirish;

Buxgalteriya hisobini yuritish, to'liq va haqqoniy buxgalteriya va moliyaviy hisobotlarning o'z vaqtida taqdim qilinishini ta'minlash;

Bank mulkining harakatlanishini nazorat qilish.

13. Bank Bosh buxgalterining ichki nazoratni amalga oshirish qismidagi funksiyalari va vakolatlariga quyidagi masalalar kiradi.

Hujjatlarni tegishli va o'rnatilgan tartibda bankda saqlash;

Bank operatsiyalari va bitimlarini amalga oshirganda amaldagi qonunchilikka rioya qilinishini ta'minlash;

Ichki nazoratni amalga qismida bankning mahalliy hujjatlari va amaldagi qonunchilik talablariga rioya qilinishini ta'minlash;

Bank departamenti direktorlari va ularning o‘rinbosarlarining vazifalari va vakolatlari lavozim yo‘riqnomalari bilan belgilanadi.

14. Filiallar boshqaruvchilari va bosh buxgalterlari va ularning o‘rinbosarlarining ichki nazoratni amalga oshirish qismidagi vakolatlariga quyidagilar kiradi:

Filial buxgalteriya hisobining yuritilishini amalga oshirish, buxgalteriya hisobida operatsiyalar va bitimlarning buxgalteriya hisobini aks ettirish, to‘liq va haqqoniy buxgalteriya hisobini shakllantirish imkoniyatini ta‘minlash;

Mulkning harakatlanishi va saqlanishining nazorat qilinishini amalga oshirish, majburiyatlarning bajarilishi ustidan nazorat.

Filiallar boshqaruvchilari, bosh buxgalterlari va ularning o‘rinbosarlarining funksiyalari lavozim yo‘riqnomalari bilan belgilanadi.

15. Bank ichki audit departamentining ichki nazoratni amalga oshirish qismidagi vakolatlariga quyidagi masalalar kiradi:

Bank Kuzatuv kengashini o‘tkazilgan ichki audit natijalariga asoslangan, bankning real holati va ichki nazorat tizimining samaradorligi haqida haqqoniy va mustaqil ma‘lumotlar bilan ta‘minlash;

buxgalteriya hisoblari va moliyaviy hisobotlarni ularning tartibliligi, aniqliligi va haqqoniyliги bo‘yicha obzori;

bank kapital xatarlarini baholash bilan bog‘liq bo‘lgan baholash bank tizimi obzori;

xatarlarni boshqarish va xatarlarni baholash uslubiyoti bo‘yicha protseduralarning samaradorligi va qo‘llanilishi obzori;

Bankning boshqaruv organlari (Aksiyadorlar umumiy yig‘ilishi, Bank Kuzatuv kengashi va Boshqaruvi) qarorlarining bajarilishi bo‘yicha ichki nazorat tizimi samaradorligini baholash;

50% yuqori ustav kapitali bankka tegishli bo‘lgan yuridik shaxslar bilan amalga oshirilgan operatsiyalar ustidan ichki nazoratni amalga oshirish;

Ichki nazorat departamenti, Menejment xatari departamenti va Qimmatli qog‘ozlar boshqarmasi, Investitsion faoliyatni muvofiqlashtirish va monitoring qilish departamentining faoliyatini belgilangan tartibda tekshirish.

Bank Ichki audit departamentining funksiyalari va vakolatlari Bank Kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Ichki audit departamenti to‘g‘risidagi Nizom va Bank Kuzatuv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan Ichki audit departamenti to‘g‘risidagi nizom va Iki audit xodimlarining lavozim yo‘riqnomalari bilan belgilanadi.

16. Bank Taftish komissiyasining vakolatlariga quyidagi masalalar kiradi:

bank aksiyadorlari va boshqaruv organlarining talablariga ko‘ra qonunchilik va bankning mahalliy hujjatlari bilan belgilangan tartibda bankning moliyaviy-xo‘jalik faoliyati ustidan tekshirish (taftish) o‘tkazish;

bank nomidan tuzilgan shartnomalar, amalga oshirilgan bitimlar, kontragentlar bilan hisob-kitoblarning qonuniyligini tekshirish;

moliyaviy-xo‘jalik, ishlab chiqarish faoliyatidagi belgilangan norma va qoidalarga rioya qilinishini tekshirish;

bankning moliyaviy ahvolini, uning to‘lovga layoqatliligini, aktivlarining likvidligini, o‘zining va qarzga olingan mablag‘larining nisbatini tahlil qilish, iqtisodiy holatini yaxshilash va bankning boshqaruv organlari uchun tavsiyalar ishlab chiqish zahiralari aniqlash;

buxgalterlik va statistik hisoblarni yuritishning tegishli normativ nizomlarga mosligini tahlil qilish, zarur hollarda birlamchi buxgalteriya hujjatlariga murojaat qilgan holda;

Bank Kuzatuv kengashi yoki Boshqaruvi tomonidan qabul qilingan qarorlarning to‘g‘riligini, ularning bank Ustaviga, Bank Kuzatuv kengashi to‘g‘risidagi va Bank Boshqaruvi to‘g‘risidagi nizomlarga, shuningdek aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarorlariga mosligini tekshirish;

aksiyadorlar umumiy yig‘ilishining qarorlarini tahlili qilish, O‘zbekiston Respublikasi qonunchiligi va boshqa normativ-huquqiy hujjatlari bilan tafovutlari mavjud bo‘lganda ularni o‘zgartirish bo‘yicha takliflar kiritish.

IV. ICHKI NAZORAT YO'NALISHLARI

17. Bank ichki nazorat tizimi bankning butun faoliyatini va nazoratning quyidagi yo'nalishlarini o'z ichiga oladi:

bank faoliyatini tashkil etishni boshqaruv organlari tomonidan nazorat qilinishi;

bank xatarlarini boshqarish tizimining ishlashi va bank xatarlarini baholashni nazorat qilish;

bank operatsiyalari va boshqa bitimlarni amalga oshirganda vakolatlarning taqsimlanishini nazorat qilish;

axborot oqimlarini boshqarish (axborotlarni olish va uzatish) va axborot xavfsizligini nazorat qilish;

qimmatli qog'ozlar bozorida professional ishtirokchi sifatida bank faoliyatining mosligini nazorat qilish;

jinoiy faoliyatdan va terrorizmni moliyalashtirishdan olingan daromalarni legallashtirishga qarshi harakatlar tizimining ishlashini nazorat qilish;

ichki nazorat tizimining bank faoliyati vazifalariga moslik darajasini baholash, kamchiliklarni aniqlash, takliflar ishlab chiqish va bankning ichki nazorat tizimini takomillashtirish bo'yicha qarorlarning amalga oshirish maqsadlarida ichki nazorat tizimining ishini kuzatish.

18. Boshqaruv organlari tomonidan Bank faoliyatini tashkil etish ustidan nazorat qilish Bank Ustavi va mahalliy hujjatlari bilan belgilanadigan vaolktlarga binoan va "Kapitalbank" ATB Korporativ boshqaruv kodeksiga muvofiq bank faoliyatini nazorat qilish yo'nalishlari va vakolatlarining ajratilishi hisobga olingan holda amalga oshiriladi.

19. Bankning boshqaruv organlari o'z vakolatlari doirasida:

qo'yilgan maqsadlarga erishishga ta'sir qiladigan xatarlarni baholaydi, bank xatarlarini baholash samaradorligini ta'minlash maqsadlarida o'zgaruvchan vaziyatlarga va sharoitlarga javob qaytarishni ta'minlovchi choralarni ko'radi. Yangi va avval nazorat qilinmagan bank xatarlarini samarali aniqlash va kuzatish uchun bank ichki nazorati tizimini tashkil qilish o'z vaqtida ko'rib chiqilishi kerak;

Bankning barcha xodimlarini, ularning lavozim majburiyatlariga binoan, ichki nazoratda ishtirok etishlarini ta'minlaydilar;

xodimlar bankning boshqaruv organlariga va tarkibiy bo'linmalari rahbarlariga amaldagi qonunchilik, ta'sis va mahalliy hujjatlarning buzilishlari, suiste'molliklar, kasbiy axloq normalariga rioya qilmaslik haqidagi barcha ma'lumotlarni yetkazib berilishini ta'minlaydigan tartibni o'rnatadilar;

Ichki audit departamentining bank bo'linmalari va xodimlari bilan o'zaro munosabatlar masalari bo'yicha hujjatlar qabul qiladilar va ularga rioya qilinishini nazorat qiladilar;

amaldagi qonunchilikka, ichki nazorat maqsadlariga zid keladigan hatti-harakatlarni sodir etilishini rag'batlantirib turishi mumkin bo'lgan qoidalar qabul qilinishi va (yoki) amaliyotini amalga oshirilishini chiqarib tashlaydi.

Bank xatarlarini boshqarish va baholash tizimining ishlashi ustidan nazorat bank tomonidan doimiy asosda, bankning ichki hujjatlari bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi, va quyidagilar asosida quriladi:

bank faoliyatining asosiy turlari bilan bog'liq bo'lgan ajratib bo'lmaydigan, asosiy xatarlarni identifikatsiyalash;

xatarlarni aniqlash, o'zgarishlarini kuzatishga yo'naltirilgan zarur protseduralar va jarayonlarni joriy etish;

bank va uning bo'linmalari oldilariga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun o'zlariga qabul qilib olishlari mumkin bo'lgan xatarning maqbul darajalarini belgilash;

xatarning belgilangan darajasidan oshib ketishiga yo'l qo'ymaydigan asosiy nazorat uslublari va nazorat tuzilmalarini belgilash.

20. Bank xatarlarini boshqarish va baholash tizimining ishlashi ustidan nazorat bank tomonidan doimiy asosda, bankning ichki hujjatlari bilan belgilangan tartibda amalga oshiriladi, va quyidagilar asosida quriladi:

bank faoliyatining asosiy turlari bilan bog'liq bo'lgan ajratib bo'lmaydigan, asosiy xatarlarni identifikatsiyalash;

xatarlarni aniqlash, o'zgarishlarini kuzatishga yo'naltirilgan zarur protseduralar va jarayonlarni joriy etish;

bank va uning bo'linmalari oldilariga qo'yilgan maqsadlarga erishish uchun o'zlariga qabul qilib olishlari mumkin bo'lgan xatarning maqbul darajalarini belgilash;

xatarning belgilangan darajasidan oshib ketishiga yo'l qo'ymaydigan asosiy nazorat uslublari va nazorat tuzilmalarini belgilash.

21. Bank xatarlarini baholash bankning faoliyatiga ta'sir ko'rsatuvchi ichki (tashkiliy tuzilmaning murakkabligi, bank xodimlari malakasining darajasi, tashkiliy o'zgarishlar, kadrlar oqimi va h.k.) va tashqi (bank faoliyatidagi iqtisodiy sharilarning o'zgarishi, qo'llaniladigan texnologiyalar va h.k.) omillarni aniqlash va ularni tahlil qilinishini nazarda tutadi.

22. Vakolatlarni taqsimlash bo'yicha nazorat opeatsiyalar va bitimlar sodir etilganda manfaatlar yuzasidan nizolar yuzaga kelishini bartaraf etilishini ta'minlash maqsadlarida amalga oshiriladi.

22. Bank operatsiyalari va bitimlar tuzilganda xatarlarni tenglashtirish va minimallashtirish uchun bankda quyidagidan iborat bo'ladigan ichki nazorat tashkil etiladi:

a) **birlamchi nazorat** – operatsiyalar o'tkazilgunguniga qadar ularning qonuniyligini nazorat qilish;

b) **joriy nazorat** – maqsadi birlamchi nazorat bosqichida ma'qullangan barcha bank operatsiyalarining muvofiqligini aniqlashdan iborat bo'lgan takroriy nazorat;

v) **yakuniy nazorat** – barcha bank operatsiyalarining qonuniyligi va maqsadli yo'nalishini tasdiqlash maqsadida keyingi bank ish kunidan kechiktirmasdan operatsion kun yakunlangandan so'ng amalga oshiriladigan nazorat.

24. Bank operatsiyalari va boshqa bitimlar tuzilganda bank bo'linmalari va xodimlari o'rtasidagi vakolatlarni taqsimlash tartibi amaldagi qonunchilik va bankning mahalliy hujjatlari bilan belgilanadi, bankning ushbu mahalliy hujjatlari quyidagi nazorat shaklini (usulini) o'z ichiga oladi:

nazorat kamchiliklarini, tartibbuzarliklarni, xatolarni aniqlash maqsadida tarkibiy bo'linmalar faoliyati natijalari to'g'risida hisobotlar va ma'lumotlar, tegishli bo'linmalar rahbarlarining tushuntirishlar so'rash yo'li bilan boshqaruv organlari tomonidan amalga oshiriladigan tekshiruvlar;

bo'linmalar rahbarlari tomonidan ularga bo'ysinadigan xodimlarning (har kungi va (yoki) har haftalik va (yoki) har oylik asosdagi ishlar to'g'risidagi hisobotlarni tekshirish orqali amalga oshiriladigan nazorat;

moddiy boyliklardan bemalol foydalanishning chegaralanishlarni, moddiy boyliklarning qayta hisoblanishini (naqd pul, qimmatli qog'ozlar va h.k. shaklida), moddiy boyliklardan foydalanilishi va saqlanishi uchun javobgarlikni ajratish, moddiy boyliklarni saqlash xonalarini tekshirish yo'li bilan amalga oshiriladigan moddiy (jismoniy) nazoratlar;

bank operatsiyalari va boshqa bitimlarni tegishli hisobotlar olish va birlamchi hujjatlar ma'lusotlari bilan taqqoslash yo'li bilan amalga oshirish uchun belgilangan limitlarga rioya qilinishini tekshirish;

belgilangan limitlardan oshib ketadigan, bank operatsiyalari va boshqa bitimlar tuzilganda vakolatlarni taqsimlash va operatsiyalarni (bitimlarni) kelishish (tasdiqlash) tizimida bank rahbarlarini shunday operatsiyalar (bitimlar) yoki yuzaga kelgan vaziyat va ularning buxgalteriya hisobida va hisobotida tegishli tarzda aks ettirilishi haqidagi ma'lumotlardan o'z vaqtida xabardor qilishni nazarda tutilgan;

bank operatsiyalari va boshqa bitimlar sodir etilganligi (protseduralari) tartibiga rioya qilinishini, hisob raqamlarini taqqoslash, tegishli rahbarlarni aniqlangan tartibbuzarliklar, xatolar

va kamchiliklar haqida xabardor qilinishini tekshirish.

25. Bank xodimlarining lavozim majburiyatlari shunday tarzda taqsimlangan bo'lishi kerakki, bunda bank operatsiyalari va boshqa bitimlar amalga oshirilganda manfaatlar nizosi va uning sharoitlari, jinoyatlar sodir etilishi va qonunga zid keladigan boshqa hatti-harakatlarning yuzaga kelishiga yo'l qo'ymaslik kerak.

Xususan, bankning birgina bo'linmasiga yoki xodimiga quyidagi huquqlarni berishga ruxsat etilmaydi:

bank operatsiyalari va boshqa bitimlarni bajarish va ularning ro'yxatdan o'tkazilishini va (yoki) hisobda aks ettirilishini amalga oshirish;

pul mablag'lari to'lovini tasdiqlash va ular uchun haqiqiy to'lovini amalga oshirish (sodir etish);

bank mijozlari va bankning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini aks ettiruvchi hisoblari bo'yicha operatsiyalarni bajarish;

bank mijozlariga maslahat va axborot xizmatlari ko'rsatish va xuddi o'sha mijozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish;

kredit berilganda taqdim etiladigan hujjatlarning haqqoniyligi va to'liqligini baholash, qarzdorning moliyaviy ahvolini monitoring qilish;

manfaatlar nizosi yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday boshqa sohalarda harakatlarni sodir etish.

26. Bank operatsiyalari va boshqa bitimlar sodir etilganda vakolatlarning taqsimlanishi ustidan ichki nazorat yetarli ishonch darajasida quyidagilarni ta'minlashi kerak:

bank mulkidan foydalanishga va qat'iy ravishda bank vakolatli xodimlarining mijozlari bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat olish;

O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan talablarga muvofiq operatsiyalarni buxgalterlik hisobida aks ettirish;

bank aktivlari va passivlarining real holatini aks ettirish va belgilangan shakldagi hisobotlarni tuzish;

bank aktivlari va passivlarining hisob ma'lumotlarini tasdiqlash, ularning qamrab olinishi nuqtari nazaridan ham, muvofiqlik tekshiruvlarining davriylik pozitsiyalari nuqtayi nazaridan ham;

buxgalteriya hisobi ma'lumotlarida mavjud bo'lgan tafovutlarni bartaraf etishga yo'naltirilgan zarur choralarni ko'rish.

27. Axborot oqimlarini boshqarish (axborot olish va uzatish) va axborot xavfsizligini ta'minlash ustidan nazorat manfaatdor shaxslarni bankning faoliyati haqidagi to'liq va haqqoniy ma'lumotlar bilan ta'minlash va bunday ma'lumotlardan foydalanish ruxsatiga ega bo'lgan shaxslar tomonidan ma'lumotlardan foydalanilishigi yo'l qo'ymaslik maqsadida amalga oshiriladi.

28. Axborot faoliyatini boshqarish ustidan nazorat qilish uchun (sanksiyalanmagan ruxsatdan va maxfiy ma'lumotlarning tarqalishidan, shuningdek maxfiy ma'lumotlardan shaxsiy maqsadlarda foydalanishdan himoya qilish tartibini ham o'z ichiga olgan holda) quyidagilarni

a) ta'minlaydi:

zarur ma'lumotlarni tegishli xodimlarga yetkazishning manzilliligi va tezligi;

ularning davriy tekshiruvini amalga oshiradigan axborot tizimlarning xavfsizligi;

to'xtamab qolmasdan va uzluksiz ishlashni ta'minlash maqsadida amalga oshiriladigan avtomatlashtirilgan axborot tizimlarini nazorat qilish (ma'lumotlar bazasi serveri va yakuniy foydalanuvchilarning ish joylarini nazorat qilish);

b) belgilab beradi:

ma'lumotlarni zahiralash va avtomatlashtirilgan tizimlar funksiyalarini tiklash protseduralari, avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalanish vaqti davomida qo'llab-quvvatlashni amalga oshiradi;

dasturiy ta'minotni sotib olish, ishlab chiqish va xizmat ko'rsatish (kuzatib borish) qoidalari, jismoniy ruxsatning xavfsizligi ustidan nazoratni amalga oshirish tartibi;

bank operatsiyalariga ishlov berilishini nazorat qiluvchi avtomatlashtirilgan protseduralar (nazoratli tahrirlash, mantiqiy ruxsat olish, ma'lumotlarni tiklash nazorati va h.k.

29. Avtomatlashtirilgan axborot tizimlari va texnik vositalari ustidan ichki nazorat umumiy nazoratdan va dasturiy nazoratdan iborat:

avtomatlashtirilgan axborot tizimlarining umumiy nazorati to'xtovsiz va uzluksiz ishlashni ta'minlash maqsadida o'tkaziladigan kompyuter tizimlari nazoratini (asosiy kompyuter, mijoz-server tizimi va yakuniy foydalanuvchilarning ish joylari ustidan nazorat). Umumiy nazorat avtomatlashtirilgan axborot tizimlaridan foydalangan vaqt davomida qo'llab quvvatlashni dasturiy ta'minotni sotib olish, jismoniy ruxsat xavfsizligi ustidan nazoratni belgilash va xizmat ko'rsatish (kuzatib borish) qoidalarini belgilanganligining ham amalga oshirishdan iborat;

dasturiy nazorat qistirma dasturlarga o'rnatilgan avtomatlashtirilgan protseduralar, shuningdek qo'lda bajariladigan, bank operatsiyalari va boshqa bitimlarga (nazoratli tahrirlash, mantiqiy ruxsat nazorati, ma'lumotlarni zahiralash va tiklash bo'yicha ichki protseduralarga) ishlov berishni nazorat qiladigan protseduralar orqali va h.k. amalga toshiriladi.

30. Bank mahalliy hujjatlarda axborot xavfsizligini boshqarish tartibi va qoidalarini belgilab beradi, tasdiqlanmagan ruxsatdan himoyalanih va maxfiy ma'lumotlarning tarqalishi va ulardan foydalanishni o'z ichiga olgan holda.

V. ICHKI NAZORAT TIZIMINI MONITORING QILISH

31. Ichki nazorat tizimining monitoringi – bu xatarlarning oshish ehtimolini baholash, xatarlarni boshqarishda foydalaniladigan kamchiliklarni aniqlash va ularning samaradorligini baholash, hodisalarning (holatlarning) kelishi haqidagi ma'lumotlar bazasini shakllantirish asosida xatarlarni boshqarishni takomillashtirish bo'yicha qabul qilingan qarorlarning amalga oshirilishi ustidan nazoratni amalga oshirish va takliflar ishlab chiqish, shuningdek ko'rsatib o'tilgan hodisalar (holatlar) kelganligi sababini tahlil qilish maqsadlarida doimiy asosda amalga oshiriladigan kuzatuvdir.

32. Bank Ichki nazorat tizimining monitoringini doimiy asosda amalga oshiradi.

33. Ichki nazorat tizimi monitoringi quyidagilarni o'z ichiga oladi:

ichki nazorat tizimining mosligi va samaradorligini tekshirish va baholash;

xatarlarni boshqarish protseduralarining va xatarlarni baholash uslubiyotining qo'llanilishi va samaradorligini tekshirish;

menedjment va moliyaviy axborot tizimini tekshirish, elektron ma'lumotlar va elektron bank xizmatlari tizimini o'z ichiga olgan holda;

buxgalterlik hisobi va moliyaviy hisobotlarning aniqlini va haqqoniylikni tekshirish;

aktivlarni saqlash vositalarini tekshirish;

operatsiyalarning tejamkorligi va samaradorligini baholash;

tranzaksiyalarni, shuningdek ichki nazorat aniq protseduralarining ishlashini testdan o'tkazish;

huquqiy va doimiy talablarga, xulq kodekslari, uslublari va protseduralariga rioya qilinishini ta'minlash uchun ta'sis etilgan tizimlarni tekshirish;

maxsus tekshiruvlar o'tkazish.

34. Ichki nazorat tizimining monitoringi bank rahbariyati va turli bo'linmalar xodimlari tomonidan amalga oshiriladi, bank operatsiyalari va boshqa bitimlarni, ularni buxgalterlik hisobida va hisobotida aks ettirilishini amalga oshiruvchi bo'linmalar, shuningdek Bankning Ichki audit departamenti tomonidan amalga oshiriladi.

35. Ichki nazorat tizimini monitoring qilish maqsadlarida bank rahbariyati va xodimlari bank operatsiyalari va boshqa bitimlarni amalga oshirish chog'ida quyidagilarni baholashlari kerak:

ichki uslublar, dasturlar, qoidalar, tartiblar va protseduralar, shuningdek belgilangan limitlarga rioya qilish;

hisob va hisobot tizimining haqqoniyligi, to'liqligi va obyektivligi, hamda boshqa ma'lumotlar yig'ish, ularga ishlov berish va saqlash;

bank tomonidan amalga oshiriladigan operatsiyalar va bitimlarga nisbatan ichki nazorat tizimini tashkil etish qismidagi bankda belgilangan va qo'llaniladigan alohida usullarning (uslublar) ishonchliligi.

36. Ichki nazorat tizimining ishlash jarayonini uzluksiz monitoring qilinishini amalga oshirish, uning ishlashi bilan bog'liq bo'lgan muammolarni aniqlash va tahlil qilish, shuningdek nazorat tizimini takomillashtirish va uning samaradorligini oshirish bo'yicha takliflar ishlab chiqish vazifasi, belgilangan qoidalar va protseduralarning mosligini mustaqil baholash, shuningdek ularga rioya qilishning to'liqligini ta'minlaydigan bank faoliyati va uning turli yo'nalishlarini tekshirish orqali Bankning Ichki audit departamentiga yuklatiladi. Bankning Ichki audit departamenti faoliyati amaldagi qonunchilik, Ichki audit departamenti to'g'risidagi nizom, bankning tekshiruvlarni amalga oshirish tartibi to'g'risidagi mahalliy hujjatlari bilan tartibga solinadi.

VI. ICHKI NAZORAT UCHUN JAVOBGAR BO'LGAN ORGANLAR VA SHAXSLAR

38. Ushbu Nizomga rioya qilish ustidan nazorat quyidagi majburiyatlarga ega bo'lgan bank Kuzatuv kengashi tomonidan amalga oshiriladi:

ichki nazorat tizimining strategiyalarini rivojlantirish va ma'qullash yo'nalishlarini belgilaydi;

Bank aksiyadorlarining har yilgi yillik umumiy yig'ilishida o'tkazilgan tahlil, ichki doimiy hisobotlar ma'lumotlariga asoslangan nazorat tizimining ishonchliligi va samaradorligini baholash, ichki va tashqi auditlar, taftish komissiyalari hisobotlari, hamda natijalari haqida, ichki nazoratning barcha jabhalari bo'yicha o'z kuzatuvlari va boshqa manbalardan olinadigan ma'lumotlar, moliyaviy nazorat, tezkorlik nazorati, qonunchilikka riya qilish ustidan nazorat, ichki siyosatlar va muaolajalar nazorati haqida xabardor qilish;

Ichki nazorat protseduralarini doimiy takomillashtirish.

39. Bank va uning alohida bo'linmalari moliyaviy-xo'jalik faoliyati ustidan nazoratning amalga oshirilishi uchun javobgarlik Bankning doimiy amal qiluvchi ichki nazorat organi – Taftish komissiyasiga yuklatiladi.

40. Moliyaviy hisobotlarning haqqoniyligi va to'liqligi, bank ichki nazorat tizimining ishonchliligi va samaradorligi ustidan nazorat tashkil qilinishi uchun javobgarlik Bank Kengashi qoshidagi Auditorlik qo'mitasiga yuklatiladi.

41. Bank ichki nazorat sohasidagi siyosatining ishlashi uchun javobgarlik Bank Boshqaruviga yuklatiladi. Bank Boshqaruvining Raisi ichki nazorat tizimi protseduralarini joriy etadi va uning samarali ishlashini ta'minlaydi, bank Kengashini bankning barcha xatarlari, ichki nazorat tizimining sezilarli kamchiliklari, shuningdek ularni bartaraf etish bo'yicha chora-tabirlar natijalari va rejalari haqida xabardor qilib turadi.

42. Har qanday darajadagi bo'linmalarning xodimlari (shuningdek rahbarlari) o'z vakolatlari doirasida nazoratni amalga oshirish bo'yicha strategiyalar va protseduralarni batafsil ishlab chiqishda bevosita ishtirok etadilar. Ularning majburiyatlariga, kelib chiqishiga qarab, nostandart vaziyatlar va muammolarni hal qilish ham kiradi. Ma'lum bitim bo'yicha yuzaga keladigan sezilarli masalalar haqida xodimlar bankning yuqori tashkilotiga xabar beradilar.

43. Ichki nazorat protseduralarining ijrosi ustidan doimiy nazoratni amalga oshirish, aynan bankning amalga oshiriladigan moliyaviy-xo'jalik operatsiyalarining O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga va Bankning, uning alohida bo'limlarining Ustaviga mos kelishi ustidan, shuningdek buxgalterlik va moliyaviy hisobotlarning to'liqligi va haqqoniyligi ustidan ichki nazorat uchun javobgarlik Bank Ichki audit departamentiga yuklatiladi.

VII. YAKUNIY QOIDALAR

44. Bankning bevosita yoki bilvosita ichki nazorat masalalariga taaluqli bo'lgan har qanday mahalliy hujjatlari mazkur Nizomga zid kelishi mumkin emas.

45. Mazkur Nizom, shuningdek unga kiritiladigan har qanday o'zgartirishlar va qo'shimchalar Bank aksiyadorlari umumiy yig'ilishi tomonidan tasdiqlangandan so'ng kuchga kiradi. Yangi tahrirdagi Nizom kuchga kirgan taqdirda, avvalgi tahrirdagi amalda bo'lgan Nizom o'z kuchini yo'qotadi

46. O'zbekiston Respublikasining qonunchilik va normativ hujjatlaridagi o'zgarishlar natijasida mazkur Nizomning alohida moddalari ularga zid kelib qolgan taqdirda, ushbu moddalar o'z kuchini yo'qotadi, va Nizomga o'zgartirishlar kiritilguniga qadar Bank O'zbekiston Respublikasining qonunchilik va normativ hujjatlariga asoslanadi.

KIRITILDI:

Yuridik xizmat departamenti Direktori

V.V. Pachurin

Korporativ Maslahatchi

A.S. Xudayberganov

KELISHILDI:

**Xatarlarni boshqarish
Departamenti direktori**

T.V. Kan

Ichki audit departamenti direktori v.b

A.S. Kariyev